

Optika sohasida yetuk olim Saidislom Qurbanov olamdan o'tdi

O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti Nanotarkibiy materiallarda optik va elektron jarayonlar laboratoriyasi mudiri, optika sohasida yetuk olim, professor Saidislom Saidg'oziyevich Qurbanovning vafoti munosabati bilan marhumming oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiramiz.



Saidislom Qurbanov 1956-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. 1978-yili Toshkent davlat universitetini tamomlagan. 1980-yildan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Issiqlik fizikasi bo'limida o'z ilmiy faoliyatini boshlagan. 2000-yili "Optik shisha va kristallarda elektron uyg'otishlar va lyuminestsentsiya" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2016-2017-yillarda Toshkent davlat texnika universiteti kafedra mudiri, 2017-yilda Nanotarkibiy materiallarda optik va elektron jarayonlar laboratoriyasi mudiri lavozimida ishlab kelgan.

42 yillik ilmiy faoliyati davomida

- rux oksidi asosli nanostrukturali materialar sintez qilish va gibrild geterostrukturalar yaratish; nanomateriallarning strukturaviy, optik va elektr xossalarni tadqiq qilish;
- nanokristallar, nanorodlar va yupqa plyonkalar, foton kristallarining lazer lyuminestsent spektroskopiyasi;
- nanostrukturali materialarda nochiziqli hodisalar va defektlar hosil qilish;
- kremniy karbidida va rux oksidida sirt elektron hodisalari;
- nanozarralar, plyonkalar va suyuq strukturalar elektron mikroskopiyasi ilmiy yo'naliishlarida tadqiqotlarni amalga oshirdi.

S.S.Qurbanov fan va ta'limni uyg'unlashtirish borasida O'zbekiston Milliy universiteti talabalariga "Fotonika" fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib borgan, talabalarning malakaviy bitiruv ishlari va magistrlik dissertatsiyalariga, shuningdek, 1 nafar PhD va 1 nafar DcS doktorlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilgan.

S.S.Qurbanov tomonidan 80 dan ortiq ilmiy ishlar e'lon qilingan, jumladan, Web of Science va Scopus xalqaro ba'zalarida indeksatsiyalanadigan xorijiy ilmiy jurnallarida 50 dan ortiq ilmiy maqolalari chop etilgan. Shuningdek, 2000-2012 yillar davomida Janubiy Korea, AQSh, Yaponiya, Hindiston, Moldava va

Gruziya kabi davlatlarda xalqaro anjumanlar va ilmiy stajirovkalarda muntazam qatnashib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi jamoasi nomidan Saidislom Qurbonovning oila a'zolari, yaqinlari, hamkasblari va shogirdlariga chuqr hamdardlik bildiramiz.